

QISHLOQ XO'JALIGIGA KIRITILGAN INVESTITSİYALAR TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH

Badalov Jamshid Jamolovich

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada qishloq xo'jaligi tarmog'iga kiritilayotgan investitsiyalarning ahamiyati va toifalari tahlil etilgan. Shuningdek ushbu jalb qilinayotga investitsiyalarning mazkur tarmoqda yaratilayotgan mahsulotlar(xizmatlar) hajmiga ta'sirining ekonometrik modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, investitsiyalar, yangi texnologiyalar, ishlab chiqarish

Bugungi kunda aholi jon boshiga daromadi 1136 dan 13 845 AQSH dollarigacha bo'lgan 108 ta o'rtacha daromadli mamlakatning maqsadi keyingi yigirma-o'ttiz yil ichida yuqori daromadli mamlakatlar qatoriga qo'shilishdir. Buning uchun ular o'z rivojlanish yo'nalishini o'zgartirishi, ya'ni 2i strategiyasiga (investitsiyalar + texnologiya in'ektsiyalari) kengaytirishi kerak¹. Investitsiyalar ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi, bozorda oziq-ovqat mahsulotlar doimiy ravishda mavjudligiga va narxlarni past darajada saqlanishiga yordam beradi, oziq-ovqat mahsulotlarini qishloq va shahar iste'molchilari uchun ancha qulayroq bo'lishini ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar oziq-ovqat ta'minotidagi uzulishlarni kamaytiradi va iste'mol barqarorligiga yordam beradi. Umuman olganda, qishloq xo'jaligining investitsiyalar kiritish uchun foydali tarmoq ekanligiga quyidagi uchta sababni ko'rsatish mumkin:

- iste'molchilar sonining doimiy o'sishi. 2022 yilda insoniyat 8 milliard chegaradan oshib ketdi. BMT prognozlariga ko'ra, 2037-yilga borib sayyoramizdagi odamlar soni 9 milliardga, 2058-yilga borib esa 10 milliardga yetadi. Bu shuni anglatadiki, dunyo aholisi tobora ko'proq oziq-ovqatga muhtoj bo'ladi va qishloq xo'jaligi tarmog'i doimiy ravishda ishlab chiqarishni ko'paytirishga majbur bo'ladi;
- bo'sh yerlarning qisqarishi tufayli texnologiyaga ehtiyoj. Dunyodagi unumdor yerlar miqdori tabiiy jihatdan cheklangan. GFSAD30 loyihasi doirasida AQSh Geologik xizmati (USGS) tomonidan olib borilgan so'nggi tadqiqotlarga ko'ra, dunyoda 1,87 milliard gektar unumdor qishloq xo'jaligi yerlari mavjud. Albatta, tarmoqda yer yetishmasligini yangi texnologik yechimlar, masalan, vertikal dehqonchilik texnologiyasi va boshqalar bilan qoplaydi, tuproq unumdorligini oshirish va ekinlar hosildorligini oshirishning yangi usullarini izlaydi. Bularning barchasi qishloq xo'jaligiga investitsiya kiritilishini talab etadi.

¹ World Bank. 2024. World Development Report 2024. Washington, D.C., United States

• subsidiyalar va davlatning qo'llab-quvvatlashi. Qishloq xo'jaligi ko'plab mamlakatlar hukumati tomonidan, jumladan, oziq-ovqat xavfsizligi siyosati doirasida faol qo'llab-quvvatlanmoqda, chunki bu soha aholi uchun juda muhimdir.

Iqtisodiyotning biron bir tarmog'ini, jumladan, agrosanoat sohasini rivojlantirish, agar buning uchun zarur shart-sharoitlar - yuqori sur'atlar va kapital jamg'arishning sezilarli miqyosi bo'lmasa, muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin yemas.

Agrobiznes sohasidagi amerikalik olim-mutaxassislar Ye.Kastl, M.Bekker va A.Nelsonlarning fikricha, investitsiyalar qishloq xo'jaligi faoliyati jarayonida asosiy va aylanma mablag'larga qo'shimcha qo'yilmalardir².

Bundan tashqari, ushbu iqtisodchilar qishloq xo'jaligiga kiritiladigan investitsiyalarni to'rt toifaga ajratadilar: 1-toifa jismoniy yoki ma'naviy yeskirgan uskunalarni almashtirish bilan bog'liq; 2-toifa - xarajatlarni kamaytirish va daromadlarni oshirish maqsadida yangi texnologiyalarni, shuningdek mexanizatsiyalash vositalarini joriy yetish va rivojlantirish bilan bog'liq; 3-toifa - mavjud korxonalar va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish bilan bog'liq; 4-toifa- yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish bilan bog'liq.

Qishloq xo'jaligida investitsiya faoliyat mazkur tarmoqda investitsiya faoliyatining rivojlanishi va intensivligi sifatida aniqlanadi. Investitsion faollikning intensivlashtirilishi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning hal qiluvchi omilidir. Shu sababli, mamlakatda qishloq xo'jaligi sohasida o'zlashtirilayotgan investitsiyalar ushbu sektorda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmiga qanday ta'sir etayotganini ekonometrik tahlil qilish dolzarb masalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotda tahlil uchun tanlab olingan omillarning statistik ma'lumotlari 1-jadvalda keltirilgan.


1-jadval Ekonometrik modelga kiritilgan o'zgaruvchilar³

№	Yillar	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotari (xizmatlar) hajmi(Y), mlrd. so'm	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligiga kiritilgan investitsiyalar(X), mlrd.so'm
1.	2016 y.	119726,7	4795,3
2.	2017 y.	154369,4	6110,6
3.	2018 y.	195095,6	7991,9
4.	2019 y.	224265,9	12199,1
5.	2020 y.	261892,2	14776,8
6.	2021 y.	317027,6	17727,9
7.	2022 y.	362898,0	15703,6
8.	2023 y.	426030,2	17004,4

2 Kasl, E. Effektivnoe fermerskoe xozyaystvovanie [Tekst] / E. Kasl, M. Beker, A. Nelson; per. s angl. i predisl. A. A. Belozertseva. – M. : Agropromizdat, 1991. – 496 c..

3 O'zbekiston qishloq xo'jaligi. Statistik to'plam, 2016-2019 yillar, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi nashri, Toshkent.-2020. - 287 b.; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. Statistik to'plam, 2020-2023 yillar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligi nashri, Toshkent.-2024.- 295 b

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligiga kiritilgan investitsiyalar va mazkur tarmoqda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotlari (xizmatlar) o'rtasidagi bog'liqlik tahliliga ko'ra, 2023 yilda tarmoqqa yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2016 yilga nisbatan 3,55 barobarga oshgan bo'lsa, ushbu davrda qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining umumiy hajmi 3,56 martaga o'sgan va 2023 yilda 426030,2 mlrd. so'mni tashkil etgan (1-rasm).



1-rasm. Investitsiyalarning qishloq, o'rmon va baliqchilik tarmog'ida yaratilgan yalpi mahsulotlar (xizmatlar) hajmiga ta'siri modeli.

Yuqoridagi rasmdagi modeldan ko'rinib turibdiki, $R^2 = 0,8929$ determinatsiya koeffitsienti qishloq, o'rmon va baliqchilik tarmog'iga kiritilgan investitsiyalar va ushbu tarmoqda yaratilgan yalpi mahsulotlar (xizmatlar) hajmi o'rtasida juda kuchli bog'liqlikni bildiradi. Demak, mazkur tarmoqqa qancha ko'p investitsiya kiritilsa, uning samarasini u yerda yaratilgan yalpi mahsulot hajmi o'sishida ko'rish mumkin.